

SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYALASHDA XALQARO STANDARTLAR

Madina Bahromova Aziz qizi**SamDCHTI Narpay Xorijiy Tillar Fakulteti****Filologiya va tillarni o'qitish ingliz tili****1-bosqish 2504-guruh talabasi****bahramovam03@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.18372828>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli jamiyat sharoitida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar va xavf-xatarlar atroflicha tahlil qilinadi hamda ularni kamaytirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari, shaxsning huquq va erkinliklarini huquqiy jihatdan himoya qilish hamda axborot xavfsizligi bo'yicha raqamli savodxonlikni oshirish zarurati yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston

Respublikasida amalda bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, xalqaro tajriba asosida Yevropa Ittifoqining GDPR talablari va ISO/IEC standartlarining shaxsiy ma'lumotlarni himoyalashdagi o'rni va ahamiyati baholanadi.

Kalit so'zlar: shaxsiy ma'lumotlar, axborot xavfsizligi, raqamli jamiyat, shaxs huquqlarini himoya qilish, qonunchilik bazasi, GDPR, ISO/IEC, raqamli savodxonlik, tahdidlar va xavflar, xalqaro standartlar

Аннотация: В статье рассматриваются ключевые вызовы и риски, возникающие в процессе защиты персональных данных в условиях стремительного развития цифрового общества. Исследование направлено на выявление основных угроз информационной безопасности и определение практических механизмов их предотвращения. Особое место уделяется правовым аспектам защиты прав личности, а также формированию информационной культуры и цифровой грамотности пользователей. Кроме того, анализируется национальная правовая система Республики Узбекистан в сфере защиты данных и проводится сравнительный обзор международных стандартов, включая требования GDPR Европейского Союза и системы ISO/IEC, как эффективных инструментов обеспечения информационной безопасности.

Калитевые слова: персональные данные, информационная безопасность, цифровое общество, защита прав личности, правовая база, GDPR, ISO, IEC, цифровая, грамотность, угрозы и риски, международные стандарты

Abstract: The article explores major risks and emerging challenges associated with personal data protection in the context of a rapidly evolving digital environment. The research identifies key threats to information security and discusses practical approaches to minimizing potential risks. Particular attention is paid to legal frameworks that safeguard individual rights, as well as the development of digital awareness and information security literacy. Furthermore, the study reviews the regulatory framework of the Republic of Uzbekistan and provides a comparative analysis of international standards, including the European Union's GDPR and ISO/IEC systems, emphasizing their role in strengthening data protection and information security.

Keywords: personal data, information security, digital society, protection of individual rights legal framework, GDPR, ISO/IEC, digital literacy, threats and risks, international standards

Kirish

Jadallashayotgan XXI asrda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish global mummolardan biriga aylanib bormoqda. Chunki hozirgi kunda dunyo bo'ylab insonlar internetga bog'lanib qolgan. Bunday raqamli muhitda internet xizmatlari ham kundan kunga rivojlanib bormoqda va keng foydalanishmoqda; ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilishadi, onlayn darslar sotib olishadi, masofadan turib ishlashadi va turli elektron savdolar tashkillashtirishadi. Bunday texnolashgan davrda ma'lumotlar yig'iladi, saqlanadi va qayta ishlanadi. Shunday tashkilotlar tomonidan ma'lumotlarni toplanishi bir qator maxfiylik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.

Shaxsiy ma'lumot bu insonlarning maxfiylik belgisidir, ma'lum bir shaxsni aniqlashga yordam beruvchi har qanday axborotdir. Bunday ma'lumotlar shaxsning o'ziga xosligini belgilaydi bunga qaramasdan uni boshqa shaxslardan ajratib turishga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi. Shaxsiy ma'lumotlarga fuqaroning familiyasi, ismi, otasining ismi tug'ilgan sanasi, yashash manzili, telefon raqami, elektron pochta manzili kiradi. Shuningdek bu muammolardan biri bu aholi orasida texnologik savodxolikning yetarli darajada bo'lmasligidir. Chunki hozirda turli xil onlayn platformalar va ilovalarni tartibsiz ko'payishi kuzatilmoqda, natijada axborot xavfsizligi bilan bo'g'liq muammolar ko'paymoqda³. Lekin ba'zi sayt va platformalarda noqonuniy axborot yig'ish va tarqatish kabi muammolar ham yuzaga kelmoqda ya'ni insonlar kiberjinoyatlarning asosiy o'ljasiga aylanadi. Eng keng tarqalgan tahdidlar; FISHING IDENTIFIKATSIYA va RANSOMWARE. O'zbekiston Respublikasi qonuni va huquqlari doirasida ma'lumotlarni uchinchi shaxsga berilishi qonun hujjatlarida zid hisoblanadi. Shuningdek, iboralar huquqiy mazmunga egaligi sababli turli hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan. Masalan, Konstitutsiyaning VII bobida, fuqarolik kodeksing 99, 100 hamda 1179-moddalarida shaxsiy huquqiy qoidalar mavjud. Shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash usullarini kengaytiradigan bo'lsam ya'ni huquqiy mexanizm muhim ahamiyat kasb etadi² Chunki, ma'lumotlar bilan ishlashda qonundan tashqari chiqmaslik zarur va mazkur talablarni buzgan shaxslarga belgilangan tartibda javobgarlik chorlari qo'llanilishi lozim. Ko'p joylarda texnik chorlarni kuchatirish kerak, kuchli parollardan foydalanish va turli biometrik himoya dasturlaridan foydalanish shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy buzilishini oldini oladi. Shuningdek, davlat organlari va faoliyat olib borayotgan saytlar va mobil ilovalarni va shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish tartibi doimiy monitoring qilib borilishi maqsadga muvofiqdir. Yana bitta global muammolardan biri ba'zi mamlakatlarda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha alohida qonunlar yo'q shu sababli insonlar o'z huquqlarini talab qila olishmaydi va qo'rqishadi, shundan ham ular turli muammolarga duch kelishlari mumkin. Hozirgi raqamlashgan davrda AI kundan-kunga rivojlanib bormoqda va sun'iy intellekt foydalanuvchini ma'lumotlarini tahlil qiladi, yig'adi, saqlaydi, qayta ishlaydi va u ma'lumotlarni hech kimni rozilgisiz tarqatib yuborishi ham mumkin. Shuningdek, insonlar AI faoliyatini nazorat qiluvchi mexanizmlarni yaratishlari kerak. Ba'zi kompaniyalar tijorat maqsadida o'z ishchilarini ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga sotishi yoki reklama uchun ishlatishi mumkin. Bunday holatlarda kompaniyalar uchun javobgarlikni kuchaytirish lozim, foydalanuvchiga o'z huquqlarini talab qilib, o'z ma'lumotlarini boshqarishi va kompaniyalarga jarimalar joriy etilishi lozim. Bunday holatlar shaxsning ma'lumotlarini xavf ostida qodiradi va fuqarolar bu muammolarni hal etish uchun davlatlar, tashkilotlar va insonlar birgalikda harakat qilishi kerak.

Chunki bu hozirgi kunda nafaqat texnik balki ijtimoiy va huquqiy masala hamdir. Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlasak, GDPR ya'ni Yevropda 2018-yildan boshlab shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga qaratilgan mashhur xalqaro andoza hisoblanadi. Buning asosiy sabablari shuki, ma'lumotlarni noqonuniy uchinchi shaxsga jo'natishni cheklash, tashkilotlar, turli saytlarni qat'iy nazorat qilishdir. Agar, insonlarning ma'lumotlari noqonuniy tarqatilgan taqdirda, da'vo arizasi bilan murojaat qilish huquqiga egadirlar. Bu reglamenting eng yaxshi taraflaridan biri shuki, istalgan vaqtda o'z ma'lumotlarini o'chirishi, to'g'irlashi yoki cheklashni talab qilish huquqiga ega va o'z ma'lumotlarini qanday maqsadda yig'ilayotganini va kimlar tomonidan qayta ishlanayotganini bilish huquqiga ega. Shuningdek, ma'lumotlar sizib chiqishi holatlarida 72 soat ichida vakolatli organlarga xabar berish huquqiga ham egadirlar.³

ISO/IEC bu ham GDPR ga o'xshash axborot xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishda asosiy vosita hisoblanadi. Xalqaro standartlarni ishlab chiquvchi mustaqil tashkilot hisoblanadi va bu tashkilot 1947-yilda tashkil etilgan. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasida ham shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish zarurati tobora ortib bormoqda. Xususan, GDPR tajribasi asosida fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari ustidan nazorat huquqlarini kengaytirish, davlat va xususiy tashkilotlarning mas'uliyatini oshirish muhim hisoblanadi. Bu esa ma'lumotlar bilan ishlovchi barcha subyektlar uchun aniq va shaffof talablarni joriy etishni taqozo etadi.⁴

Bundan tashqari, ISO/IEC xalqaro standartlarini joriy etish orqali axborot xavfsizligini ta'minlash, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash jarayonlarida xavfsizlik darajasini oshirish mumkin. Ushbu standartlar tashkilotlarga xavflarni aniqlash, ularni baholash va oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi.⁵

Hozirgi kunda sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalasini yanada dolzarb qilib qo'ymoqda. Chunki sun'iy intellekt tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlarni avtomatik ravishda tahlil qiladi va qayta ishlaydi. Agar bu jarayonlar yetarli darajada nazorat qilinmasa, shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi va suiiste'mol qilinishi xavfi ortadi. Shu sababli, sun'iy intellektdan foydalanishda ham qat'iy huquqiy va axloqiy me'yorlarni belgilash zarur.

Xulosa:

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bugungi kunda nafaqat texnologik, balki ijtimoiy va huquqiy muammo hisoblanadi. Ushbu masalani samarali hal etish uchun davlat organlari, xususiy sektor va jamiyat birgalikda harakat qilishi lozim. Xalqaro tajribani o'rganish, qonunchilikni takomillashtirish va aholining huquqiy hamda raqamli savodxonligini oshirish orqali shaxsiy ma'lumotlarning daxlsizligini ta'minlash mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Amaldagi tahrir.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (99, 100, 1179-moddalar).
3. O'zbekiston Respublikasi "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni. — 2019-yil.
4. Regulation (EU) 2016/679 — General Data Protection Regulation (GDPR).
5. ISO/IEC xalqaro axborot xavfsizligi standartlari.